



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI METAFORA VA O‘XSHATISHLAR TARJIMASIDA QO‘LLANGAN USULLAR

Fazildinova Sevaraxon Nematovna
CAMU xalqaro tibbiyot universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi metafora va o‘xshatishlarni ingliz tiliga o‘g‘irishda qo‘llanilgan tarjima usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mumtoz matndagi obrazli ifodalarning semantik xususiyatlari, ularning tarjimada qayta yaratilish darajasi va badiiy estetik funksiyasini saqlab qolish muammolari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tarjimada qo‘llanilgan transformatsiya, moslashtirish (adaptatsiya) va funksional muqobillik kabi usullarning samaradorligi qiyosiy tahlillar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Farhod va Shirin”, metafora, o‘xshatish, tarjima usullari, transformatsiya, badiiy estetika, qiyosiy tilshunoslik, mumtoz adabiyot.

МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ МЕТАФОР И СРАВНЕНИЙ В ДАСТАНЕ «ФАРХАД И ШИРИН»

Фазилдинова Севарахон Нематовна
Международный медицинский университет CAMU

Аннотация

В данной статье анализируются методы перевода, использованные при передаче метафор и сравнений из дастана Алишера Навои «Фархад и Ширин» на английский язык. В процессе исследования рассматриваются семантические особенности образных выражений в классическом тексте, степень их воссоздания в переводе и проблемы сохранения их художественно-эстетической функции. Также на основе сравнительного анализа освещается эффективность таких методов, как трансформация, адаптация и функциональная эквивалентность, примененных в процессе перевода.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Фархад и Ширин», метафора, сравнение, методы перевода, трансформация, художественная эстетика, сопоставительная лингвистика, классическая литература.

METHODS USED IN THE TRANSLATION OF METAPHORS AND SIMILES IN THE EPIC POEM “FARHAD AND SHIRIN”

Fazildinova Sevaraxon Nematovna
CAMU International Medical University

Abstract

This article analyzes the translation methods used in rendering metaphors and similes from Alisher Navoi's epic poem “Farhad and Shirin” into English. The research examines the semantic features of figurative expressions in the classical text, the degree of their re-creation in translation, and the challenges of preserving their artistic and aesthetic functions. Furthermore, the effectiveness of methods such as transformation, adaptation, and functional equivalence used in the translation process is highlighted through comparative analysis.

Keywords: Alisher Navoi, “Farhad and Shirin”, metaphor, simile, translation methods, transformation, artistic aesthetics, comparative linguistics, classical literature.

Jahon adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egallagan Alisher Navoiy asarlarini chet tillariga tarjima qilish va ularning badiiy xususiyatlarini saqlab qolish bugungi kun tarjimashunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, “Farhod va Shirin” dostonining ingliz tilidagi nasriy talqinlari o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari g‘arb kitobxoniga qanday yetkazilayotganini tahlil qilish uchun boy material beradi. Badiiy tarjima jarayonida nafaqat so‘z ma‘nosini, balki muallifning individual uslubini, davr ruhini va matnning kommunikativ maqsadini saqlash muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi doston tarjimasida qo‘llangan leksik, grammatik va semantik transformatsiyalarni aniqlash hamda P. Newmark va boshqa olimlar tasniflagan tarjima usullari — semantic, communicative, adaptation — asar matnida qanday namoyon bo‘lishini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

O‘zbek tarjimashunoslari I. G‘afurov, O. Mo‘minov, N. Qambarov, E. Ochilov, Sh. Sirojiddinov, rus tarjimashunoslari V. Komissarov, T. Kazakova, L. Retsker, L. Barxudarov, A. Fedorov, A. Popovich, ingliz tarjimashunosligining ko‘zga ko‘ringan nazariyotchilari J. Munday, P. Nyumark, Y. Nayda, J. Ketford, M. Halliday, B. Hatim, R. Ellis va E. Sapirlar asarlarida tarjima transformatsiyalari, ekvivalentlik masalalari, tarjima qonun-qoidalari va me‘yorlari, tarjima turlari va metodlari hamda turli madaniyatlarga tegishli matnlar tarjimasidagi qiyinchiliklar va yechimlar haqidagi nazariyalari bilan ushbu yo‘nalishning rivojlanishida muhim o‘rin tutadilar.

V. Komissarov tarjima jarayonining natijalariga muvofiq tarjima metodlarini tavsiflashda “adekvat tarjima”, “ekvivalent tarjima”, “aniq tarjima”, “so‘zma-so‘z tarjima” hamda “erkin tarjima” kabi atamalarni qo‘llaydi [5; 34]. Olim adekvat va ekvivalent tarjimani “bir-biriga yaqin, ammo bir xil bo‘lmagan tushunchalar” deya ta’riflaydi. A. Shveitser esa bu ikki atamani tarjimaning ikki jihatiga, ya’ni tarjima natija va tarjima jarayon sifatida bog‘laydi. Olim ekvivalent tarjima haqida gapirar ekan, u natijaga qaratilganligini ta’kidlaydi, tarjima matni esa manba matniga qanchalik mos kelishi bilan baholanadi. Adekvatlik esa tarjima jarayonini tavsiflaydi [7; 93]. Tarjima adekvatligiga erishish maqsadida mutarjimlar turli metodlar, usullar va strategiyalardan foydalanadilar. Tarjima metodi o‘g‘irish jarayonida matnning uslubiy turiga va tarjimonning maqsadiga ko‘ra tanlanadigan usul hisoblanadi.

Yana bir tarjimashunos olim P. Nyumark o‘zining tarjimaga oid asarida tarjimaning sakkiz xil usulini ko‘rsatib, ularga izohlar beradi. Uning fikricha, tarjima usullari so‘zma-so‘z (word-for-word), hijjaviy (literal), muallif uslubi saqlangan (faithful), semantik (semantic), adaptatsiya (adaptation), erkin (free), idiomatik tarjima (idiomatic) va kommunikativ (communicative) ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin [6; 45]. Badiiy tarjima jarayonida mutarjimlar tomonidan ko‘pincha transformatsion metod qo‘llanadi. Semantik, muallif uslubini saqlash hamda adaptatsiya usullari asliyat matndagi mazmunni tarjima tilida qayta ifodalashda samarali hisoblanadi. O‘zbek tilidagi matnni ingliz tiliga tarjima qilishda eng ko‘p uchraydigan o‘zgartirish gap tuzilishi bilan bog‘liq. Ularning eng muhimlari grammatik transformatsiyalarni tashkil etuvchi so‘z tartibini o‘zgartirish, qo‘shma gapni sodda gap asosida tarjima qilish, sodda gapni qo‘shma gap shaklida o‘g‘irish, bosh gapni ergash gap bilan almashtirish, so‘z turkumini almashtirish hamda oppozitsiyali struktura bilan almashtirishlardir.

Masalan: “Farhod bu bebaho xazinani butunisicha Xoqonga topshirdi” (“Farhod va Shirin”, 71-b.).

Farhod — (S) ega; xazinani — (O) to‘ldiruvchi; topshirdi — (V) kesim.

O‘zbek tilida so‘z tartibi odatda S+O+V shaklidagi qurilma, ya’ni ega + ikkinchi darajali bo‘lak + kesim qolipiga asoslanadi. Ingliz tilida esa S+V+O, ya’ni ega + kesim + ikkinchi darajali bo‘lak shaklida so‘z tartiblanadi.

Tarjimasi: “Farhod passed the priceless treasure to the King” (“Farhod and Shirin”, p. 100).

Farhod — (S) ega; passed — (V) kesim; treasure — (O) to‘ldiruvchi.

Shunday qilib, manba tilda so‘z tartibi SOV bo‘lsa, tarjima tilida so‘z tartibi SVO ekanligini ko‘rish mumkin. Bu esa har ikki tilning turli tipologik guruhlariga mansub ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, badiiy matn tarjimasida leksik transformatsiyalarning ham o‘rni beqiyos. Ushbu transformatsiya usullariga transkripsiya va transliteratsiya qilish, kalkalash, umumlashtirish, konkretlashtirish, qo‘shish, tushirib qoldirish, kompensatsiya qilish kabilar kiradi. Bu jarayonda ko‘proq so‘zlarni tarjimada ularning sinonimlari, antonimlari bilan almashtirish, ba‘zan mazmunga ta’sir etmasa, tushirib qoldirish, mazmunni to‘liq ifodalash uchun qo‘shish kabi usullar qo‘llanadi.

Masalan: “Shunday bir qush (Farhod) bu gulshanda (Armaniston) istirohat qilaman deb, tuzoqqa ilingan ekan, ranj-u baloga o‘z xursandchiligi bilan, tuzoqqa esa o‘z oyog‘i bilan tushgan ekan, uni izzat-hurmat qilish zarur” (“Farhod va Shirin”, 115-b.).

Tarjimasi: “Since such a bird wanted to rest in our garden and was trapped in return, we should respect him – we are now in great need of him” (“Farhod and Shirin”, p. 179).

Ushbu jumlaning ingliz tiliga qilingan nasriy tarjimasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, matnni o‘g‘irishda semantik, kommunikativ va adaptatsiya usullari qo‘llanilgan. Xususan, asliyat matndagi “qush” — Farhod va “gulshan” — Armaniston kabi metaforik obrazlar semantik tarjima usuli orqali o‘z holicha saqlangan bo‘lsa, “tuzoqqa o‘z oyog‘i bilan tushish” kabi murakkab idiomatik birikmalar tarjimon tomonidan o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun adaptatsiya qilinib, “was trapped in return” shaklida berilgan. Mazkur jarayonda leksik-semantik sathda konkretlashtirish, grammatik sathda esa o‘zbek tilidagi maqsad ravishdoshli qurilmalarni inglizcha infinitiv konstruksiyalarga o‘tkazish kabi transformatsiyalar kuzatiladi.

Ayniqsa, gap yakunidagi “uni izzat-hurmat qilish zarur” jumlasini ingliz tilida “we should respect

him – we are now in great need of him” tarzida kommunikativ tarjima qilinishi asarning badiiy-estetik ta’sirini saqlash bilan birga, tarjima tili sohiblari uchun mantiqiy izchillikni ta’minlagan. Umuman olganda, tarjimon muallif uslubini saqlash tamoyiliga tayangan holda, stilistik soddalashtirish orqali dostonning falsafiy mazmunini ingliz tili tabiatiga moslashtirishga erishgan.

Transformatsion jarayonlar nafaqat sintaktik, balki morfologik sathda ham faol kechadi; buni “Qorun xazinasiday ko’p” ifodasining “amassed like King Qorun’s treasure” tarzida o’girilishida ko’rish mumkin. Bu yerda grammatik transformatsiya natijasida so’z turkumi almashishi yuz bergan. Asliytdagi “ko’p” miqdor ravishi ingliz tilida “amassed” — “to’plangan” fe’li orqali tarjima qilingan. Ya’ni Adverb → Verb, ravish → fe’l qurilmasi yuzaga kelgan. Shu bilan birga, ushbu misolning turli tarjimalardagi ekvivalentlari qiyoslanganda, tarjimonlar obrazli mantiqni saqlashning turlicha usullarini tanlagani namoyon bo’ladi. Masalan, B. Taylor tomonidan qo’llangan “countless as a desert sands” o’xshatishi ma’no jihatdan mos kelsa-da, muallif uslubini saqlashda semantik yondashuvdan ko’ra ko’proq erkin tarjimaga yaqinlashadi.

Xuddi shu usulda aslyat matndagi “yorug’” sifati orqali ifodalangan statik holat ingliz tilida “shone” — “porladi” fe’li orqali dinamik harakatga aylantirilgan. Ya’ni Adjective → Verb, sifat → fe’l qurilmasi qo’llangan. Ushbu o’rinlarda so’zma-so’z tarjimadan voz kechilib, tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda mantiqiy ekvivalentlik ta’minlangan.

Badiiy tarjimada nafaqat grammatik transformatsiyalar, balki milliy va madaniy etalonlarni, ya’ni obrazli o’xshatishlarni saqlash ham muhim lingvokulturologik muammo hisoblanadi. Dostondagi “arslon bolasiday baquvvat” o’xshatishining ingliz tiliga “as strong as a tiger cub” shaklida o’girilishi erkin tarjima usuliga misol bo’lishi bilan birga, tarjimada etalonni almashtirish hodisasi yuz berganini ko’rsatadi. Bu o’rinda tarjimon o’zbek madaniyatidagi kuch-qudrat timsoli bo’lgan “arslon” — lion obrazini ingliz tilida “yo’lbars” — tiger bilan almashtirgan. Garchi har ikki jonivor ham qudrat ramzi bo’lsa-da, bu noto’g’ri so’z tanlovi asarning milliy koloriti va muallif qo’llagan aniq badiiy tasvirga putur yetkazadi.

Lingvistik nuqtayi nazardan, “arslon bolasi” birikmasi uchun ingliz tilida “lion cub” muqobili mavjud bo’lgani holda, “tiger cub” — “yo’lbars bolasi” birligining tanlanishi madaniy farq va tarjimonning subyektiv talqini natijasidir. Ma’lumki, ingliz frazeologik fondida “bold as a lion” — “arslondek jasur” kabi barqaror birikmalar mavjud bo’lib, ular muallif uslubini saqlashda, ya’ni faithful translation jarayonida tayyor etalon vazifasini o’tashi mumkin edi. Bunday leksik-semantik o’zgarishlar maqsadli tilda mantiqiy ekvivalentlikni ta’minlasa-da, matnning original semantik strukturasi uzoqlashishga olib keladi. Shu sababli ilmiy tahlilda bu kabi o’rinlar tarjimonning erkin yondashuvi va ba’zan semantik nomuvofiqligi sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tarjimasida til sathi va uslubiy xususiyatlardan kelib chiqib, turli xil transformatsion amallar bajarilgan. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, tarjimon muallif uslubini saqlash — faithful translation va kitobxonga tushunarli bo’lish — communicative translation o’rtasidagi muvozanatni topishga intilgan. Grammatik sathda so’z tartibini o’zgartirish, SOV → SVO, so’z turkumlarini almashtirish, ADV → VERB — ravish → fe’l va NOUN → VERB — ot → fe’l kabi transpozitsiyalar asarning badiiy dinamikasini oshirishga xizmat qilgan. Metaforik obrazlar va idiomatik birikmalar tarjimasida ko’pincha adaptatsiya va semantik tarjima usullari ustuvorlik qilgan. Umuman olganda, badiiy matn tarjimasida ayrim stilistik qisqartirishlar va soddalashtirishlar kuzatilsa-da, asarning umumiy g’oyaviy-badiiy yaxlitligi va Navoiy ijodiga xos poetik ruh saqlab qolingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin / nasriy bayon muallifi G’ofur G’ulom. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 1975. — 245 b.
2. Farhod and Shirin / Alisher Navoiy; translated by Azam Abidov. — Tbilisi–Tashkent, 2018. — 374 p.
3. Fazildinova S. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida qo’llangan lingvistik va badiiy metaforalarning ingliz tilida qayta ifodalanishi // Current Approaches and New Research in Modern Sciences. — 2026. — Vol. 5, № 3. — B. 63–68. — DOI: 10.5281/zenodo.19201657.
4. Fazildinova S. Structural and Compositional Features of Similes Used in Alisher Navoi’s Epic “Farhod and Shirin” // Bulletin of Innovative Research. — 2026. — Vol. 2, № 2. — P. 28–32.
5. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учебник для институтов и факультетов иностранных языков. — М.: Высшая школа, 1990. — 253 с.
6. Newmark P. A Textbook of Translation. — Shanghai: Foreign Language Education Press; Prentice Hall, 1988. — 292 p.
7. Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, аспекты, проблемы. — Москва: Наука, 1988. — 215 с.